

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA
OLIY MAKTABI

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası

“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi IV kurs talabasi

Shukurlayev Mansur Sodiqboy o‘g‘li

“Xorazm va Qoraqalpoq raqs maktabining qiyosiy tahlili”

Mavzuyidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası mudiri dotsent _____ M.SH.Murodova	Ilmiy rahbar: “San’at nazariyasi va tarixi” Professori _____ N.K.Kosimov
--	--

TOSHKENT - 2018

MUNDARIJA

Kirish

3

I-BOB. Xorazm va Qoraqalpoq raqslari tarixi

1.1. Xorazm raqslarining shakllanishi

1.2. Qoraqalpoq raqslarining o'ziga xosligi

II-BOB. Xorazm va Qoraqalpoq raqsi namoyondalari

2.1. Gavhar Raximova va "Lazgi"

2.2. Po'lat Madrayemov hamda "Oyquloq" raqs ansambli

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilova

KIRISH

O'zbek raqs san'ati milliy merosimizning ajralmas qismidir. Unda o'tmish an'analari, chuqur mazmun kasb etuvchi qadriyatlar aks etadi. Uning asosini qanchalik o'rganmaylik shunchalik yangidan yangi qirralari ochilib o'zining naqadar boy san'at ekanini ifoda etaveradi.

Har qaysi millatning urf-odatlarini, ma'naviyati, tafakkuri shunchaki bir bo'shliqda shakllanmaydi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy manbalar asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 1997-yil "O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon ijrosi yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1997 - yil 21 - fevraldagi 101 - sonli "O'zbekistonda milliy raqs va Xoreografiya san'atini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori o'zbek milliy raqs san'atini istiqboli hamda rivojiga asos bo'ldi.

Milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, o'zbek raqs san'atining tarixiy an'alarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma'naviyatiga monand raqslarni targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy raqs yo'nalishlari bo'yicha uzoq muddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash, raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik didiga zid bo'lgan, yuzaki, no'rin taqlidga asoslangan xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan jozibali raqs namunalarini to'plash, boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, ularda milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom xislarini yuksaltirish, mamlakatimizning barcha hududlaridagi raqs yo'nalishlarini asrash, avaylash, shu asosda yangi badiiy jamoalar tuzish, mustaqillik ma'naviyatini va istiqlool g'oyalarini tarannum etuvchi,

xalqimizga estetik zavq bag‘ishlovchi zamonaviy o‘zbek milliy raqs maktabini yaratish...”¹ ishlari va tarixiy ahamiyatga ega.

Yana shunday milliy raqsimizni yuksalishiga keng yo‘l ochadigan qaror Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 31 mayda “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3022-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorda O‘zbek milliy raqs va xoreografiya san‘atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san‘at rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli san‘atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida batafsil bayon qilingan.² Bunday imkoniyatlar bizning milliy raqs san‘ati sohasida ijod qilayotgan san‘atkorlarga, yosh ijodkorlarga ulkan imkoniyat eshiklarini ochib berdi.

Ushbu farmonning qabul qilinishi tarixda yashab ijod qilgan san‘at ustalarining hayoti va faoliyati bilan tanishishni ularning ijro uslublarini o‘ziga xos mukammallikni o‘rganishni talab etadi. Bu esa o‘zbek raqs va xoreografiyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuning dolzarbligi: Qoraqalpoq hamda Xorazm xalq va sahnaviy raqslari kelib chiqish tarixini mukammal o‘rganish, bu ikki raqs maktablari rivojida ulkan hissa qo‘shgan raqs ustalari ijodiy faoliyatini kengroq yoritish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda Xorazm va Qoraqalpoq raqs san‘ati rivojida amalga oshirilayotgan yangiliklar, sahnalashtirilayotgan raqslar, hamda ustozlar yaratgan merosiy raqslarni qayta tiklash va yosh raqs ijodkorlariga o‘rgatish borasida bir qator fikr va mulohazalar tahlil qilib o‘tilgan, bu mavzuning dolzarbligi

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистонда миллий рақс ва хореография санъатини ривожлантириш тўғрисида”ги Фармони. 1997 йил 8 январ. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг Ахборотномаси. 1997 йил, 1- сон, 26-28- бетлар.

² O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-3022-sonli raqori.

hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Taniqli Qoraqalpog'iston va O'zbekiston Xalq artisti, san'atshunos olimi **E.A.Petrosovaning “Karakalpakskiy tanets”, Sh.Usnatdinovni “Polat Madreymov birinshi qaraqalpaq baletmeysteri”** kitobi, **Fazlieva Layloning “Zamonaviy sahnaviy Qoraqalpoq raqsi”** nomli bitiruv malakaviy ishida “Qoraqalpoq ijro maktabining kelib chiqishi va o'ziga xosligi, sahnaviy qoraqalpoq raqsining zamonaviy ko'rinishi, Qoraqalpoq raqsining uslubi va harakatlari, milliy liboslari haqida real ma'lumotlar keltirgan. **Z.Aliyevaning** “Qoraqalpoq ayollari taqinchoqlari tarixidan”. **N.P.Lobachevaning** “Karakalpakskie golovnye nakidki”, **M.Qozoqboyevning.** “Egizak raqqoslar” maqolasidagi “Ayqulash juldizlari” ansamblining so'nggi yillardagi faoliyati haqida qisqacha ma'lumot ham mavzuning yoritilishi uchun bilvosita ahamiyatlidir. Ayniqsa, L.Abdeeva³, R.Karimova⁴, G.Hamrayeva⁵lar yaratgan ishlarida Xorazm raqslari haqida bir qator ahamiyatli manbalar mavjud, biroq O'zbekiston Xalq artisti Gavhar Raximova haqida ayrim maqolalarda bir qadar ma'lumotlar o'z aksini topgan. Biz Xorazm raqslari va bu sohada ijod qilgan san'atkorlar ijodi to'g'risidagi ma'lumotlarni G.Matyokubovanining “Ofatijon lazgi”⁶ va “Lazgi” kitoblaridan olishimiz mumkin. Bularning barchasi biz uchun tayanch manba ekanini alohida ta'kidlab o'tishimiz joizdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari: Mazkur tadqiqotning maqsadi, Xorazm va Qoraqalpoq raqs san'atini tarixiy shakllanish bosqichlari, bu ikki raqs maktabi namoyondalari, raqslarining o'ziga xosligi, Xorazm hamda Qoraqalpog'istonda tashkil qilingan raqs ansambllarining ijodiy rivojlanish yo'li va ularning repertuarining boyligi, shu bilan bir qatorda “Ayquloq” va “Lazgi” raqs asnsanbillarida sahnalashtirilgan raqslarni chuqur va har tomonlama tadqiq va

³ L.Abdeeva “O'zbek milliy raqs tarixidan” – T., 2001

⁴ R.Karimova “O'zbek raqslari” – Cho'lpon nashriyoti. –T., 2003

⁵ G.Hamrayeva “Raqsning milliy qiyofasi” – издательство журнала “San'at”. –T., 2012

⁶ Г. Матёкубова Офатихон «Лазги». — Адабиёт ва санъат нашриёти – Т., 1993

tahlil hamda targ'ibot qilish. Ushbu mavzuning kengroq yoritilishiga quyidagi savollarga javoblar asos yaratadi hamda ishning maqsad- vazifalarini belgilaydi.

- Xorazm va Qoraqalpoq raqs san'ati shakllanish tarixini o'rganish;
- Ilk Xorazm va Qoraqalpoq raqslarini o'rgangan ijodkorlar faoliyatiga to'xtalish;
- Xorazm hamda Qoraqalpog'istonda tashkil qilingan raqs ansambllar faoliyatini kengroq yoritish.
- "Lazgi" va "Ayquloq" raqs ansambli nima maqsadda tashkil etilgani uning mustaqillik davridagi ijodining avvalgilaridan farqini belgilash;
- G.Raximova va P.Madremov ijodiy faoliyatiga to'xtalish;
- Hozirda faoliyat yuritayotgan ansambllarning Xorazm va Qoraqalpoq raqs san'atidagi o'rni, jahonda Qoraqalpoq raqs tarovatini qay tarzda namoyish etib kelayotganini aniqlash;

Tadqiqot obyekti va predmeti: Bitiruv malakali ishining obyekti Xorazm va Qoraqalpoq raqslari bo'lib, bu ikki maktab raqslarining turlari, nomoyondalari va raqs ansambllari faoliyati uslubiy o'ziga xosligi esa tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: Malakaviy bitiruv ishida Xorazm va Qoraqalpoq raqslari taqqosiy tomonlama o'rganilmoqda. Bunga ko'ra Xorazm va Qoraqalpog'istonda tashkil qilingan ansambllar va ularda sahnalashtirilgan raqlarning xilma-xilligi o'zaro taqqoslanib baletmeysterlar mahorati qiyosiy tomonlama tahlil qilingan. Hamda Qoraqlapoq va Xorazm raqslarining bir-biriga uyg'unligi yoritilgan. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ijod qilayotgan raqs ijodkorlari va ular tomonidan ijro etilayotgan hamda sahnalshtirilayotgan raqlar to'g'risida fikrlar ta'kidlanadi. Tadqiqot Qoraqalpoq xalq raqslari taraqqiy etish, shakllanish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus izlanish ekanligi jihatidan ham muhimdir.

Bitiruv malakaviy ishda qo'llanilgan metodologiya. Ushbu ishda tarixiy, muammoviy, ilmiy-tahliliy qiyosiy, va tadqiqot obyektni estetik tarbiyaviy ahamiyatini belgilovchi metodologiya qo'llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish - **Kirish**, **Birinchi bob**, **Ikkinchi bob**, **Xulosa**, **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** va **Ilovadan** tashkil topgan.

Kirish qismida tanlangan mavzu dolzarbligi, uning yoritilish darajasi, ish oldida qo'yilgan maqsad va vazifalar, ishning ilmiy yangiligi, tadqiqotning predmeti va obyekti, ishda qo'llanilgan metodologiya hamda malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi ochib beriladi.

Birinchi bob “Xorazm va Qoraqalpoq raqslari tarixi” deb nomlanib, ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi:

1.1. “Xorazm raqslarining shakllanishi”

1.2. “Qoraqalpoq raqslarining o'ziga xosligi” deb nomlanib Xorazm va Qoraqalpoq raqslari rivojining qisqacha tarixi, bu ikki raqs maktablarining o'ziga xos xususiyat va uslublari hamda dolzarb muommolari haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi bob “Xorazm va Qoraqalpoq raqsi namoyondalari” deb nomlanib, bu bob ham ikki qismdan iborat:

2.1. “Gavhar Raximova va “Lazgi””

2.2- “Po'lat Madrayemov hamda “Oyquloq” raqs ansambli” bunda bevosita Xorazm va Qoraqalpoq raqslari hamda raqs ansambllari namoyondalari, ularning Xorazm va Qoraqalpoq raqslari rivojiga qo'shgan hissasi va ijro etilgan raqslari hamda raqs ansambllari faoliyatlariga bag'ishlangan.

Xulosada olib borilgan barcha izlanishlar yuzasidan umumlangan fikrlar bayon etiladi va ba'zi fikr-mulohazalar keltiriladi.

Ilovada mashhur raqs ustalarning fotosuratlarini, taqrizlardan nusxalar, san'atshunoslar va raqs bo'yicha mutaxassislar bilan bo'lgan suhbatlar matni va boshqa hujjatlar beriladi.

Birinchi bob. Xorazm va Qoraqalpoq raqslari tarixi

Raqs san'ati barcha san'at turlari ichida o'zining jozibasi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda har bir millat o'z dini, o'z tili, o'z san'ati, o'z madaniyati, urf-odati va shular qatorida o'z milliy raqsiga ham ega. Har bir millat o'z raqsida o'z hayotini, turmush tarzini va madaniyatini aks ettiradi.

O'zbek raqs san'ati ham boy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Raqslardagi har bir harakat, nazokat mutanosibligi: jilo, ko'z qarashlari, ohista va yengil qadamlar, liboslar bularning barchasi milliy qiyofani aks ettiradi va millatimizga, madaniyatimizga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Har bir xalqning o'z raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bor. San'atning qadimiy turlaridan biri bo'lib kelgan xalq raqsi xalq hayotining tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlari ta'siri ostida tarkib topib, rivojlanib kelgan. Shu sababli unda xalq an'analari, psixologiyasi, davr va muhit ta'siri o'z tamg'asini qoldiradi. Xalq raqsi san'atning ko'pgina turlari, ayniqsa, musiqa bilan uzviy bog'langan, shuningdek, xalq marosimlari va bayramlarining tarkibiy qismi bo'lib kelgan. O'zbek raqs san'atining rivojlanishida xalq raqslarining o'rni juda katta. Birgina Xorazm maktabiga xos bo'lgan raqslarning o'zigina bir xalqning tarixidan tortib bugungi kunigacha bo'lgan davrni so'ylab beradi. Bu esa raqsni mazmunan, mano jihatdan ham boyishiga xizmat qiladi.

1.1. Xorazm raqslarining shakllanishi

Xorazm necha asrlardan buyon o'z buyukligini saqlab kelgan va tarix sahifasidan joy olgan o'lkadir. Bu qadimiy zamin o'zining buyuk allomalari, fani, madaniyati, arxitektura yodgorliklari bilan jahon madaniyatini bebaho xazinalar bilan boyitdi. Shu madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa va raqs san'ati goh qisqarib, goh tanazzulga yuz tutib, bizgacha yetib kelgan. Xorazmda paydo bo'lgan ilk raqslar diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan. Qadimiy Xorazm o'yinlari to'g'risida Avesto kitobida ancha ma'lumot berilgan. Avesto, garchi boshqa jihatlardan ancha keng o'rganilgan bo'lsa-da, san'atga oid masalalar shu

choqqacha e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Ma'lumki, bosqinchilik urushlari va boshqa turli sabablarga ko'ra, Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketgan. Hozirgi kunda mavjud Avesto asari Yasna, Yashta, Vispart, Vendidat, Xurda — Avest bo'limlaridan iborat.

Yasna bo'limi Xorazm otashparastlik raqslarining kelib chiqishini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Xorazmda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar davrida ko'pgina saroy va qasrlarning devorlari cholg'u asboblari rasmlari bilan ham bezatilganligi ma'lum bo'ldi. Davra bo'lib raqsga tushayotgan raqqos va raqqosalar surati, hayvon niqobida o'ynayotgan o'yinchilar, biron bir marosimga bag'ishlab, qo'lida doira bilan o'ynayotgan kishilar tasviri Xorazmda raqs san'ati qadim zamonlardayoq paydo bo'lganligidan darak beradi. Yillar o'tishi bilan milliy zamindan suv ichgan bu san'at rivojlanib, o'sib borgan. Albatta, o'sish yillari bilan birga, tanazzul davrlari ham bo'lgan. Xorazm maqomlari, kuy-ko'shiq va raqslari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xorazm san'atining qaysi bir turi bo'lmasin alohidaligi, milliyligi, an'ayaaviy ligi, ijro uslubi bilan farq etib turadi. Ustoz Roziya Karimova hozirgi zamon Xorazm raqslari harakatlariga nom qo'yib ularning holatlarini tasvirlab, Xorazm raqs madaniyatining tahliliga o'z hissasini qo'shgan.

O'zbek raqs san'ati maktablari ichida Xorazm raqsi maktabi alohida o'ringa egadir. Xorazmning o'jar, noqulay ob-havosi, — miloddan avvalgi VI asrda fors bosqinchilari — ahmoniytlarning birortasiga bo'yin egmagan, miloddan avvalgi III asrda Iskandar Zulqarnaynga (Aleksandr Makedonskiyga), dastlabki milodiy asrlarda Xitoy qabilalariga, milodiy IV asrda oq xunlarga, VIII asrda arablarga bo'ysunmagan qadimgi erksevar davlatning tarixiy taqdiri xalq tabiatiga xos xususiyatdir. Aynan xorazmliklarning tarixiy xususiyatlari raqsni oshkora hissiyotchanlik, mardlik bilan boyitishga yordam bergan. Bugungi kunda Maqom uforining ayrim raqslarini mashhur raqqosalar ijrosida kuzatar ekanmiz, ularning xatti-harakatlarida mard ot minuvchi ayollar haqidagi hikoyani kuzatishimiz mumkin. Shunda qadimgi xorazmlik massaget-harbiy ayollar va massaget-suvoriy

ayollar haqidagi afsonalar esga tushadi. An'anaviy o'zbek raqlari ro'yxatida harbiy raqlarni faqat xorazmliklarda kuzatish mumkin. Ma'lumki, asrimiz boshida xon qo'shini qoshida raqqoslar guruhi bo'lgan. Ular jang boshlashdan oldin jangchilarning ruhini ko'targan. Uning nomi Xorazmdagi eng ommaviy raqs va professional raqs guruhi nomlanganidek, "Lazgi" deb ataladi. Jo'shqinlik, olovli ehtiros mustaqil, mag'rur xalqning xarakterini aniq ifodalaydi.

Xorazmda birorta ham xalq sayillari, oilaviy bayramlar, tantanali kechalar kuy-qo'shiqsiz o'tmaydi, Xorazmliklar ichida raqs tushinshi bilmaydigan, sevmaydigan insonning o'zi yo'q. Xorazmning xalq raqlari avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadimiy an'analar asosida saqlanib kelgan va madaniyatni oltin merosi tarkibiga kiritilgan, bular: "Ot o'yin", "Qummushuk", "Qirg'ovul", "Chag'aloq", "Kaptar o'yin", "Sipsa o'yin", "Cho'girma tikish", "Ko'knori", "Bayda ufori", "Yu-pu-pu", "Mag'aldak", "Gul ufori", "Hayvon ufori" ("Xo'roz", "G'oz", "Makiyon", "Go'sfand", "Uloq", "Pishak"), "Burda", "Ratalla", "Galalaylim", "Mashalla". Qadimgi raqslardan shu paytgacha yetib kelgan eng mashhur raqs bu - "Lazgi".

Xorazmda katta-yu kichik, yosh-u qari, kampirlar-u qizlar "Lazgi"ga o'ynaydilar. Xalq "Lazgi"si quvonch raqsidir. Raqs ohista qo'shiq bilan boshlanadi va raqqoslar uni asosiy raqs figurasi bilan ifodalaydilar. Go'yo sekinlashtirib olingan kino tasmasidagi kabi raqqoslar o'yin shakllarini namoyish etib boradilar, har bir harakat alohida bo'rttirib ko'rsatiladi, tomoshabinlar ham, raqqoslar ham shu paytda sport musobaqasidagi kabi, bir alomat kutayotgandek qizg'in kayfiyatga tushadilar. Birdan ritm sho'xchan tempga o'tib ketadi, raqqos ohangning bitmas-tuganmas parvozigga qo'shilib boradi, mana shu yerga kelganda haqiqiy mo'jiza ro'y beradi — bu inson zavq-shavqining betakror ifodasidir. Harakatlar ketma-ket, misoli kamalakning ranglari kabi, bir-birining o'rniga kelaveradi, raqqosning har bir mushagida qon gupurib turadi. Haqiqatdan, Lazgi — insonning benihoya kuch-g'ayrati ifodasi. U kishi ko'z o'ngida paydo bo'ladi, yashaydi, isyon ko'taradi, u to'xtashi yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin emas, chunki u cheksiz. Raqsning intihosi ham xuddi shunday, keskin yuz beradi, raqqos

tugallanmagan harakat holatida qotib qoladi. Shu bilan bir qatorda Xorazmda bir qancha erkaklar raqsi bor. Yevropa klassik raqsining terminologiyasi bilan aytganda, bu raqslar oyoqning ikkinchi pozitsiya holati asosida yaratilgan original vaziyatlardan iborat. Raqqos oyoqlarini bir-biridan biroz uzoqlashtirib, tizzalarini ikki tomonga burib, sekin-asta o'tiradi va o'ziga qayroqda jo'r bo'ladi. Lekin, raqqos pauzadan keyin mast bo'lgandek, quyoshda pishgan muskullari sinayotgan kabi quyundek tez aylanar ekan, u ispanlarning ehtiros va shijoatga to'la raqslarini eslata boshlaydi. Ammo, bu o'xshatishlar Xiva raqslarining o'ziga xos bir xususiyati yo'qligidan emas, albatta. Gap shundaki, Hindistonning nozik va dona-dona harakatli klassik raqslari, shuningdek, ehtiros va noz bilan to'la bo'lgan ispan raqslari qadimdan bu san'atning durdonalari bo'lib hisoblanib keladi. Shuning uchun ham Xiva raqslarini tomosha qilganda, yuqoridagi hind va ispanlarning ajoyib raqslari eslanadi.

Xorazmlik raqqos **Karim Ollaberganov** ham iste'dodli raqqoslar qatoridan joy olgan. Manbalarga asosan u qayroqlarni mohirona chalishi ritmik kompozitsiyalar yaratilishiga olib kelib, tomoshabinlar va sozandalar uning ortidan ergashardi. "Toshlarning jaranglashi goh shivirlaydi, gohida tosh ko'chkisiday gumburlaydi, asabiylashadi, da'vat qiladi, do'q uradi, keyin yana sekinlashib, jazirama peshin paytida ulkan yong'oq tagidan oqib o'tgan ariq suvidek jildiraydi... Hech bir ritmik fraza, hech bir akkord bo'shliqqa singib, yo'qolib ketmaydi, raqqosning ohangiga ritmik kaprichchio singari mos kelibgina qolmaydi, yo'q! Qo'llar, yelkaning har bir harakati, tana yuqori qismining ritmik titrashlari, har qanday harakati – hammasi bir bo'lib yagona sahna obrazini (siymosini) yaratadi. Qayroqlar tovushi va plastika ehtiros deb atash mumkin bo'lgan ruhiy holatini ifoda etuvchi yagona obrazni tashkil etadi".

Aytishlaricha Karim Ollaberganov raqs paytida qo'llari, tana yuqori qismining barcha mushaklari, oyoqlari faol harakatlanayotgan paytda tanasini harakatsiz tutib turishni bilgan. Birdan to'xtab, qayroq ikki marta shaqqillaganidan keyin raqqos sekin-asta tizzalarini bukib o'tira boshlaydi. Tizzalar taxminan 70 gradusli burchak hosil qiladi, tovonlar o'rtasida biroz joy qoladi, artist qanchalik

pastroqqa cho'ksa, tovonlar shunchalik balandroq ko'tariladi. Qo'llar ham ikki tomondan yuqoriga ko'tarilib boradi, bittasi ko'krak oldida to'xtasa, ikkinchisi yuqoriga ko'tarilib ketadi, jarangdor ritmlar esa davom etaveradi. Yelkalar goh yumshoqqina, erinibgina titrab qo'yadi, kuchga to'lib toshadi. Tana esa ikki tomonga tebranib turadi. Shu o'tirishda, ya'ni chuqur "plie" holatida qayroq bir necha marta qarsillaydi, keyin sekin-asta ko'tarilish boshlanadi, tana va qo'llar esa raqsdan bo'shamaydi. Karim Ollaberganov ana shunday mohir raqqos bo'lgan.

VIII asrda arablar Xorazmni bosib oldilar. Islomdan boshqa dinlar, e'tiqodlar ta'qiqlandi. Qadimiy Xorazm madaniyati, san'ati tanazzulga yuz tutdi. Ayollarning xalq o'rtasida o'ynashi, kuylashi, raqs tushishi mutlaqo man qilindi. Bo'ysunmagan sozanda, ashulachi raqqosalar, yuzsizlikda ayblanib, boshlari kesildi. Ta'qib-u, tazyiqlar ko'pchilik san'atkorlarning Hindiston, Xitoy singari arablar oyog'i yetmagan uzoq mamlakatlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Xitoy, Hindiston hukmdorlari ularga hurmat bilan qaraganlar. Saroyda ishlagan xorijiy san'atkorlar moddiy ta'minlanganlar. Aksariyat sozanda va raqqosalar bu yerda butunlay qolib, Xitoy, Hind san'ati taraqqiyotida muhim rol o'ynaganlar. Hind musiqasi bilan Xorazm musiqasi o'rtasida mohiyatan uzviy bog'liqlik bor. Bizning ko'pgina kuy va ohanglarimiz, musiqamizda pinxon buyuk dardu o'ynoqilik hind musiqasiga ham xos. Bu bejiz emas. Xorazmning qadimiy «Norim-norim» raqs kuyi bilan Hindistonning qadimiy «Batmison» raqsi kuyida ohangdoshlik mavjud. Xorazm raqslarida ham, hindlarda ham zang taqib o'ynaladi. Hindlarda bir joyda, faqat harakatlar bilan o'ynaladigan raqs «Baxorati natyam» mavjud. Xorazmda ham bunday o'yin borligini yuqorida aytib o'tdik. Yallalari ham o'xshash. Hindistonda ham, Xorazmda ham raqs ijro etuvchilar aytilayotgan yalla so'zini raqs tili bilan ifodalash qonuniga amal qiladi. Men yallali raqslar ijrochisi, raqqosa sifatida tub negizi hind raqs uslubi harakati bilan chabarchas o'xshash 12 ta Xorazm raqs harakatini bilaman. Komiljon Otaniyozovning «Guldasta» kuyining avj qismi hindlarning «Alixo» kuyining o'zginasi. Bu ustoz san'atkorning «Ra'noni ko'rdim» ashulasi kuyi hindcha «Misri-misri» ashulasining ohangiga mengzaydi. Albatta, bu musiqa bastakorlari

mazkur kuylarni o'zlari, bir-biridan bexabar holda yaratishgan. Hindiston va Xorazm san'ati o'rtasidagi uzviylik, bog'liqlik alohida tadqiq etiladigan mavzu. Keyingi maxsus tadqiqotlarda bu mavzu keng va atroflicha yoritilsa ajab emas.

1.2. Qoraqalpoq raqslarining o'ziga xosligi

Qoraqalpoq madaniyatining keng ko'lamda rivojlanishi XX asrning 20-30 yillaridan boshlanadi. Avtonom Respublikada professional teatr, milliy musiqa, ashula va raqs ansambli maydonga keldi, xalq havaskorlik to'garaklari ko'payib, xalq orasidan iqtidorlilari jamlandi, shuningdek xalq raqsini yaratish sohasida ham dastlabki ishlar olib borildi. Shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, bu ishlar 50- yillargacha shiddat bilan bir me'yorda borgani yo'q, harakatlar kutilgan natijalarni bermaganligini ham yashira olmaymiz. Baletmeysterlar o'z izlanisharida ma'lum raqs usullaridan foydalanish yo'lida xalq ijodiyotiga nazar tashlamay, sahnaviy raqs yaratishga uringanlar. Bu harakatlar keyinchalik ham xalq ichiga singib ketmadi.

Qoraqalpoq xoreografiya san'atining dastlabki shakllanish jarayoni teatr bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Uning professional san'at turi sifatida paydo bo'lishi 1937 yildan boshlanadi. 1941 yili Tamara Ibrohimova baletmeyster Toyirov bilan Nukusga kelib N.Dovqarayevning- "Alpomish" musiqali dramasidagi "Oyqulash" xalq so'zini V.R.Shafrannikov kuyi asosida birinchi marta Tamara Ibrohimova sahnalashtirgan edi. Keyinroq Tamara Ibroximova S.Majitovning "Qora yuraklar" musiqali dramasidagi raqslarni ham sahnalashtirgan va bu raqslar tomoshabinlarda ilk professional sahnaviy raqs sifatida ijobiy taassurotlar uyg'ota olgan edi.

Qoraqalpoq milliy sahnaviy raqs san'ati XX asr birinchi yarmining oxiriga kelib to'planib, professional xoreografiya talablariga binoan shakllana boshlagan. 1944 yili, K.S.Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq Davlat teatri qoshida 6 oylik balet kursi tashkil etilib, unga rahbarlik qilish uchun Toshkentdan O'zbekiston Xalq artisti Ali Ardobus taklif etiladi. Bu kurs 3 yil davomida balet ijrochilarini

tayyorlab chiqaradi.

Turkiy xalqlar raqslarini sahnalashtirishda boy tajribaga ega Ali Ardobus oʻz hayotini raqs sanʼatiga bagʻishlagan, Oʻrta Osiyoda tanilgan sanʼatkor edi: Uning 1930 yili tuzgan Oʻrta Osiyo qoʻshiq, musiqa va raqs ansambli 1932 yili Moskvaga gastrol safariga borganida ularning ijodi haqida “Izvestiya” gazetasida shunday yozilgan edi. “Ansambl koʻrsatgan tomoshalar qoʻshiq va raqslarining gʻoyaviy jihatdan pishib, badiiy tomondan kamolotga yetayotganidan darak beradi. Tomoshabinlar Oʻrta Osiyo xalqlarining qoʻshiq varaqalarini zoʻr qiziqish bilan tomosha qiladilar”⁷. Mohir sanʼatkor Ali Ardobus qoraqalpoq milliy xoreografiya sanʼatini yaratish va rivojlantirishda juda katta hissa qoʻshdi. U ulugʻ Vatan urushi yillaridayoq qoraqalpoq sanʼati bilan qiziqish va uning taraqqiy etishida bir muncha quvonarli ishlar qildi. U 1944 yilning ikkinchi yarmidan 1947 yilgacha 40 kishilik balet studiyasiga muallimlik qildi. Bu balet studiyasidan esa Edikova, Avazova, Doʻsimbetov, Qosimov va boshqa sanʼatkorlar yetishib chiqdi. U qoraqalpoq yigit va qizlariga xoreografiya sanʼatining alifbosidan boshlab oʻrgatib, ularni sanʼatkor darajasiga koʻtardi. Shu yillar mobaynida turli xalqlar hayyotidan bir qancha raqslar sahnalashtirdi. Jumladan “Terma”, “Lazgi”, “Andijon samosi”, (oʻzbekcha), “Chim-chim”, (uygʻurcha), “Togʻ lazgisi” kabi raqslarni aytib oʻtishimiz lozim. Togʻri, bu yillarda qoraqalpoq sanʼati hayotga unchalik singib ketmagan edi, shuning uchun ham oʻzbek raqsini juda yaxshi bilgan Ali Ardobus qoraqalpoq raqsini yaratish va anʼanaviy musiqaga xoreografiyani uygʻunlashtirish jarayonida ancha qiyinchiliklarga duch kelgan.

Qoraqalpoq raqs sanʼati 1951 yili Toshkentda boʻlib oʻtgan qoraqalpoq adabiyoti va sanʼati dekadasiga tayyorgarlik paytida tez rivojlangani maʼlumdir. Dekadada xoreografiya sanʼatini qoʻlga kiritgan muaffaqiyatlarda Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq artisti L. Petrosova uyushtirgan qoraqalpoq qoʻshiq va raqs ansambining hissasi katta boʻldi.

U 1956 yildan 1969 yilgacha qoraqalpoq xalqi hayotidan “Baliqchilar”, “Kiyiz basiu”, “Chuponlar”, “Amudarya”, “Toʻy”, “Xalqlar doʻstligi”, “Bogʻbon

⁷ “Известия” 1932 йил 22 март

yigitga” kabi raqslar va laparlarni tomoshabinlarga taqdim etdi. L.Petrosova rahbarlik qilgan ansambl shu lapar va raqslar bilan 1957 yili jahon yoshlari va talabalarining Moskvada bo‘lib o‘tgan festivalda qatnashgan va kumush medal bilan mukofotlangan. Bu kabi yuksak cho‘qqilarni zabt etishining sababi esa L.Petrosova raqs yaratishda boshqacha yo‘lni tanladi. U ma’lum bir mavzu tanlab olib raqs yaratar ekan, uning zamiriga qoraqalpoq xalqiga xos va azaldan davom etib kelayotgan mehnat jarayonlarini raqs shakliga keltiradi, qo‘l-oyoq harakatlarini ana shu mehnat jarayonidagi holatlardan olib ta’sirli plastika yaratadi. Ayniqsa, qoraqalpoq xalqining to‘y-tomosha, ko‘pgina tantanali marosimlari asosida raqs yaratishga intiladi. Mana shu faktlar L.Petrosovaning qoraqalpoq qo‘shiq hamda raqs ansamblini tuzishdagi xizmati, xoreografiya san’atini rivojlantirishdagi salmoqli hissasi borligini nafaqat tarix sahifalaridan, balki hozirgi kundagi raqs ansambllari ijodiy faoliyatida ko‘ramiz.

L.Petrosova qoraqalpoq raqs san’atini shakllantirish rivojlantirishdagi ilk “qaldirg‘och” bunyodkorlaridan biri. Bugungi kunda qoraqalpoq xalqi o‘z professional raqsi va raqqosalariga ega. L.Petrosovaga raqs jamoasini tuzishdek masuliyatli ishni muaffaqiyatli bajarishga xalq ijodiyoti namoyondalari katta yordam ko‘rsatdi. Ular orasida o‘sha paytdagi ashulachilar, bastakorlar, rassomlar va qishloqlardagi san’at muxlislari qo‘llaridan kelgan yordamlarini ayashmadi. Shu sababli ham qoraqalpoq raqsi L. Petrosova rahbarligida san’atsevar xalq tomonidan kashf etilgan. O‘zbek raqs san’atining taraqqiy bosqichlarini yaxshi bilgan L.Petrosova qoraqalpoq raqsini yaratishda ham shu yo‘ldan bordi. Lekin qoraqalpoq raqsi o‘zbek raqs ko‘chirmasiga aylantirilmadi, qoraqalpoq xalqi hayotiga bog‘lab haqiqiy qoraqalpoq milliy raqsini yaratdi. Natijada Farg‘ona, Buxoro, Xorazm raqslaridan keskin farqlanuvchi yangi va jozibador qoraqalpoq milliy raqsi dunyoga keldi.

Qoraqalpoq raqsining dastlabki ijodkorlari va ijrochilari birinchi chiqishlarini ommabop xalq qo‘shiqlari bilan namoyish qildi. Ilk bor tomoshabinlar huzurida o‘z san’atlarini ko‘rsatishganida raqsning o‘zini emas, balki uni xalq qo‘shiqlari bilan bog‘lab moslashtirib ijro etganlar. “Qiyiz basu”, “Ilme sultan” kabi o‘zida xalqning

an'anaviy o'yinlari, mehnatini, rasm-rusmlarini tarannum qiluvchi raqslar shular jumlasidandir. To'y-tomoshalarda ijro etiladigan raqslar ijodkorlarga birmuncha qulayliklar yaratdi. Sababi bu raqslarning deyarli barchasi mehnat jarayonini aks ettiruvchi harakatlar, liboslar ijrochilar va tomoshabinlar uchun yaxshi tanish edi. San'atshunoslik fanlari nomzodi, san'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi L. Avdeyva o'zining "Raqsnig tug'ilishi" maqolasida qoraqalpoq raqs studiyasida birinchi bor havaskorlar ishtirokidagi ko'rik tanlovning hay'at a'zosi bo'lib ishtirok etgan paytini eslab shunday yozadi: Tanlovga qatnashish uchun ariza yozib kelgan yigit-qizlarga hakamlar "Qani nimani bilasan, o'yna" – deb raqsga tushirganida ko'pchiligi "Baliqchilar", "Ilme sultan" raqsini ijro etdi. Shunda hay'at a'zolari "Baliqchilar" raqsini ijro etgan bir yigitdan "bu raqsnig sen qayerdan o'rganding?" – deb so'ralganida, u "uyda ham, maktabda ham qayerda bolalar yig'ilishsa, shu raqslarnig o'ynaydi"- deb javob berdi.⁸

Qoraqalpoq raqsining o'ziga xos jihatlari bor. Ya'ni raqqosalar raqsga tushgan paytda yengil, nafis, ohista va nozli harakatlar qilishadi. Ular shunchalik serjilva va go'zal o'ynashadiki hatto ularning bu harakatlarga* qarab ularning qaysi tomonga qarab harakatlanayotganini bilmay qolasan kishi. Raqqoslarning esa har bir qadamida jo'shqinlik, dadillik xarakterini ifodalovchi harakatlari tomoshabinni beixtiyor o'ziga jalb etadi.

Qoraqalpoq raqs san'ati 1951 yili Toshkentda bo'lib o'tgan qoraqalpoq adabiyoti va san'ati dekadasiga tayyorgarlik paytida tez rivojlangani ma'lumdir. Dekadada xoreografiya san'atini qo'lga kiritgan muaffaqiyatlarda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Xalq artisti L. Petrosova uyushtirgan qoraqalpoq qo'shiq va raqs ansamblining hissasi katta bo'ldi.

U 1956 yildan 1969 yilgacha qoraqalpoq xalqi hayotidan "Baliqchilar", "Kiyiz basiu", "Cho'ponlar", "Amudarya", "To'y", "Xalqlar do'stligi", "Bog'bon yigitga" kabi raqslar va laparlarnig tomoshabinlarga taqdim etdi. L. Petrosova rahbarlik qilgan ansambl shu lapar va raqslar bilan 1957 yili jahon yoshlari va

⁸Л.Авдеева "Ўзбекистон маданияти" 1969 йил

studentlarining Moskvada bo‘lib o‘tgan festivalda qatnashgan va kumush medal bilan mukofotlangan. Bu kabi yuksak cho‘qqilarni zabt etishining sababi esa L. Petrosova raqs yaratishda boshqacha yo‘lni tanladi. U ma’lum bir mavzu tanlab olib raqs yaratar ekan, uning zamiriga qoraqalpoq xalqiga xos va azaldan davom etib kelayotgan mehnat jarayonlarini raqs shakliga keltiradi, qo‘l-oyoq harakatlarini ana shu mehnat jarayonidagi holatlardan olib ta’sirli plastika yaratadi. Ayniqsa qoraqalpoq xalqining to‘y-tomosha, ko‘pgina tantanali marosimlari asosida raqs yaratishga intiladi. Mana shu faktlar L. Petrosovaning qoraqalpoq qo‘shiq hamda raqs ansamblini tuzishdagi xizmati, xoreografiya san’atini* rivojlantirishdagi salmoqli hissasi borligini nafaqat tarix sahifalaridan, balki hozirgi kundagi raqs ansambllari ijodiy faoliyatida ko‘ramiz.

L. Petrosova qoraqalpoq raqs san’atini shakllantirish rivojlantirishdagi ilk “qaldirg‘och” bunyodkorlaridan biri. Bugungi kunda qoraqalpoq xalqi o‘z professional raqsi va raqqosalariga ega. L. Petrosovaga raqs jamoasini tuzishdek mas’uliyatli ishni muaffaqiyatli bajarishda xalq ijodiyoti namoyondalari katta yordam ko‘rsatdi. Ular orasida o‘sha paytdagi ashulachilar, bastakorlar, rassomlar va qishloqlardagi san’at muxlislari qo‘llaridan kelgan yordamlarini ayashmadi. Shu sababli ham qoraqalpoq raqsi L. Petrosova rahbarligida san’atsevar xalq tomonidan kashf etilgan. O‘zbek raqs san’atining taraqqiy bosqichlarini yaxshi bilgan L. Petrosova qoraqalpoq raqsini yaratishda ham shu yo‘ldan bordi. Lekin qoraqalpoq raqsi o‘zbek raqs ko‘chirmasiga aylantirmadi, qoraqalpoq xalqi hayotiga bog‘lab haqiqiy qoraqalpoq milliy raqsini yaratdi. Natijada Farg‘ona, Buxoro, Xorazm raqslaridan keskin farqlanuvchi yangi va jozibador qoraqalpoq milliy raqsi dunyoga keldi.

Elezaveta Petrosova Tamaraxonimning singlisi. Raqs san’ati sirlarini Elezaveta Petrosova Usta Olim Komilov, YUsuf qiziq SHakarjonov, tug‘ishgan opalari Tamaraxonim va Gavhar Raximovalardan o‘rgangan. San’atdagi ijodiy faoliyatini 1929 yilda Andijon teatrida raqqosa sifatida boshladi. 1933-1936 yillari Samarqand drama teatrida ham raqqosa va baletmeyster sifatida ijodini davom ettirdi. 1938 yildan 1956 yilga qadar O‘zbek davlat filarmoniyasida barkamol ijod

qildi. Ulug' Vatan Urushi yillarida esa Gavhar Raximova rahbarligi ostida tashkil topgan front xotin-qizlar ansamblida baletmeyster vazifasida faoliyat yuritdi. 1956 yildan 1970 yilga qadar Berdax nomidagi QQASSR Davlat filarmoniyasining badiiy rahbari va baletmeysteri bo'lib xizmat qildi. 1966-1967 yillari san'atshunoslik institutida ilmiy xodim vazifasida faoliyatini olib bordi.

70 dan ortiq qoraqalpoqcha raqslarni sahnalashtirdi. Elezaveta Petrosova sahnalashtirgan raqslar professional badiiy jamoalari repertuaridan ham mustahkam o'rin egalladi. Elezaveta Petrosovaning 1956-1959 yillarda sahnalashtirgan raqslari qoraqalpoq axolisi va san'at shaydolari tomonidan qizg'in kutib olindi va qoraqalpoq ashula va raqs ansamblining repertuaridan mustahkam o'rin egalladi. Elezaveta Petrosova sahnalashtirgan raqslar xalq orasida ham juda mashxurbo'lib ketdi. Elezaveta Petrosova raqs sahnalashtirishdan oldin, avvalo qoraqalpoq xalqiga tanish va qalbiga yaqin bo'lgan insonning mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi, yoki tabiat manzaralarini kuylovchi mavzularni tanlab olib chuqur o'rganar edi. SHu sababli ushbu millatga xos mehnat jarayonlarini tushunish uchun, uning o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib olis qishloqlarga borib kuzatar edi. Amudaryo va Orol dengiziga borib baliqchilar harakatlarini, "Muynoq" yarimorolidagi sovxozlardan biriga borib to'r to'qish san'atini o'rgandi. Kater va shlyupkada dengizga chiqdi, soatlab baxshilarning qo'shiq va dostonlarini eshiib ancha tajriba orttirdi. An'anaviy yoshlar kechalarida u erdagi qadimgi xalq o'yinlarini ko'rib tomosha qildi. Ayniqsa, gilamdagi o'ziga xos naqshlar, to'qima matoga ishlangan rasmlarni juda katta ishtiyoq bilan o'rgandi. Elezaveta Petrosova bilan birgalikda qoraqalpoq xalq raqs ansamblini tuzish g'oyasi va qoraqalpoq xalq raqslarini yaratilishi ishtiyoqida yongan eng yaqin maslaxatchilari va jonkuyarlari o'z hissalarini qo'shishdi. Sekin-asta yarati lajak raqs harakatlari tug'ila boshladi. Ilk raqsda koshma yasash mehnat jarayoni tasvirlangandi. Raqs juda oddiy qanday ishlansa bor xolicha ko'rsatilgan bo'lsada, lekin raqs juda jozibali, o'ynoqi va shaddod ko'rinishga ega bo'ldi. Keyingi raqs sahnalashtirishda mehnatni tarannum etuvchi yoki turmush maraosimlarini aks ettiruvchi raqs ko'rinishlarida har bir obrazlar hayotiyiligini namoyish qila boshladi. Agar

“Baliqchilar”, “Qoshma” raqslarida ijrochilar mehnat jarayonlarini viqorli, jozibali, ya’ni, bor xolda ko’rsatilgan bo’lsa, ammo “Ilme-sultan” raqsida to’qimachilar va kashta tikishni namoyishkorona ko’rsatish unchalik talab etilmadi. “Aygulash” nomli xorovod raqs sahnasi nafaqat, yarim kechasi oy sho’lasida yosh yigit-qizlarning an’anaviy sayrini, balki juda nozik va go’zal harakatlar orqali birinchi sevgining barq urishini hikoya qiladi. “Aygulash” xorovodi bilan bir vaqtning o’zida “Nozly” nomli yakka ayollar raqsi sahna yuzini ko’rdi. “Nozly” raqsida hech qanday syujet, namayishkorona imo-ishoralar mavjud emas. Raqs juda ko’p aylanishlardan, qo’llarning keng harakatlaridan maxorat bilan foydalanilgan. “Nozly” kuchli insonning xursandchiligini namoyish qilib qolmay, shu bilan birga uning nimalarga qodir ekanligini ham ko’rsatadi. SHuni ham ta’kidlash lozimki, qoraqalpoq raqslari o’zbek raqs harakatlarini takrorlamaydi, vaholanki xorazm vohasidagi o’zbeklar-qoraqalpoq xalqining yang yaqin qo’shnisidir. O’zbek raqslari o’zining qadim zamonlardan buyon sayqallanib rivojlanishda davom etayotgan, undagi raqs maktablarining xilma-xil ko’rinishi va namoyishi bilan o’ziga jalb qiladi.

Qoraqalpoq raqslari-butun gavda harakatlari, oyoq harakatlarining shiddatli namoyishi, jilvali qo’l harakatlari, tana harakatlarining maftunkor tebranishlari, o’ziga xos elka va boshning silkinishidir. Qoraqalpoq ommaviy raqslarining 1957 yilda Moskvada bo’lib o’tgan demokratik yoshlar va talabalarning xalqaro butunjaxon festivalida ilk namoyishidanoq, qoraqalpoq raqslari hammani lol qoldirdi.

Qoraqalpoq raqslari o’zining jozibadorligi, harakatlarning texnik jihatdan kuchli, shiddatli oyoq harakatlari barchani o’ziga mahliyo eta oladi. Elezaveta Artyomovnani barcha yoshu-qari erkalab Lizaxonim deb atashardi. Elezaveta Petrosova 1957 yilda bo’lib o’tgan Butunittifoq talaba va yoshlar festivalining sovrindori, 1969 yilda Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat mukofoti sohibasi, ikki marotaba “Xurmat Belgisi” ordeni va yurtimizning bir qancha medallariga sazovor bo’lgan. Elezaveta Petrosovaning qoraqalpoq raqslarini sahnalashtirishdagi uch yillik faoliyati juda katta maktab vazifasini o’tadi. Ish faoliyatining birinchi

yillarida Elezaveta Petrosova bir qancha raqslarni sahnaga olib chiqdi. Sahnalashtirilgan raqslarda: 1) mehnat jarayonlari; 2) xayvonlar dunyosini ochib beruvchi, tabiat manzaralarini aks ettiruvchi; 3) xalq o'yinlari, marosimlari, an'analari; 4) Lirik raqslar-inson his-tuyg'ularini namoyon etuvchi taqlidli raqslardan tashkil topgan edi. E. Petrosova juda ko'plab ommaviy, duet, yakka raqslarni ashula va raqs ansamblida ijod qiladigan ijrochilar uchun sahnalashtirdi. SHu bilan birga musiqali-drama teatri spektakllarida qator raqslarni sahnaga qo'ydi. Bu asosan ommaviy raqslar bo'lib, juda sahnabop va bayromona taassurot qoldirardi. 1966 yildan to 1967 yilgacha E. Petrosova O'zbekiston san'atshunoslik institutining teatr va xoreografiya sektorida kichik ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. U erda teatr olimlari va etuk xoreograflar bilan birgalikda o'zi yaratgan va sahnalashtirgan raqslarni rasmlarga va kinotasmaga olib tahlil qildi. Baletmeyster E. Petrosova o'zi yaratgan va sahnalashtirgan raqslarni astoydil o'rgandi. Bu esa o'z navbatida uning keyingi qoraqalpoq raqslarini yanada boyitishga va yangi raqslarni sahnaga olib chiqishga yaxshi zamin yaratdi. Qoraqalpoq raqs san'ati ko'p jihatlari bilan qozoq va turkman raqslariga yaqinroq, ammo ularning raqslaridagi o'ziga xosligi mutlaqo xilma-xil. Qoraqalpoq raqslarining asoschisi E. Petrosova raqs sahnalashtirish uchun harakatlarni yig'ar ekan, avvalambor, birinchi galda oyoq harakatlarini uxta o'ylab chiqdi. CHunki ommaviy xalq raqslari yoki yakka raqs bo'lsin shiddatli, tezkor oyoq harakatlarisiz qoraqalpoq raqslarini tsavvur etib bo'lmaydi. SHuning uchun ham qoraqalpoq raqs maktabi uch turdagi asosiy qismga bo'lingan. Bular-qo'l harakatlari, oyoq harakatlari va gavda harakatlaridir.

Qoraqalpoq raqsining dastlabki ijodkorlari va ijrochilari birinchi chiqishlarini ommabop xalq qo'pshqlari bilan namoyish qildi. Ilk bor tomoshabinlar xuzurida o'z san'atlarini ko'rsatishganida raqsning o'zini emas, balki uni xalq ko'shiqlari bilan bog'lab moslashtirib ijro etganlar. "Qiyiz basu", "Ilme sultan" kabi o'zida xalqning an'anaviy o'yinlar.

Mehnatini, rasm-rusumlarini tarannum qiluvchi raqslar shular jumlasidandir. To'y-tomoshalarda ijro etiladigan raqslar ijodkorlarga birmuncha

qulayliklar yaratdi. Sababi bu raqslarning deyarli barchasi mehnat jarayonini aks ettiruvchi harakatlar, liboslar ijrochilar va tomoshabinlar uchun yaxshi tanish edi. San'atshunoslik fanlari nomzodi, san'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi L.Avdeyeva o'zining "Raqslarning tug'ilishi" maqolasida qoraqalpoq raqs studiyasida birinchi bor havaskorlar ishtirokidagi ko'rik tanlovning hay'at a'zosi bo'lib ishtirok etgan paytini eslab shunday yozadi: Tanlovga qatnashish uchun ariza yozib kelgan yigit-qizlarga hakamlar "Qani nimani bilasan, o'yna" – deb raqsga tushirganida ko'pchiligi "Baliqchilar", "Ilme sultan" raqsini ijro etdi. Shunda hay'at a'zolari "Baliqchilar" raqsini ijro etgan bir yigitdan "bu raqsni sen qayerdan o'rganding?" – deb so'ralganida, u "uyda ham, maktabda ham qayerda bolalar yig'ilishsa shu raqslarni o'ynaydi"- deb javob berdi.⁹

Qoraqalpoq raqsining o'ziga xos jihatlari bor. Ya'ni raqqosalar raqsga tushgan paytda yengil, nafis, ohista va nozli harakatlar qilishadi. Ular shunchalik serjilva va go'zal o'ynashadiki hatto ularning bu harakatlarga* qarab ularning qaysi tomonga qarab harakatlanayotganini bilmay qolasan kishi. Raqqoslarning esa har bir qadamida jo'shqinlik, dadillik xarakterini ifodalovchi harakatlari tomoshabinni beixtiyor o'ziga jalb etadi.

Har bir xalqning milliy raqsi usha xalqning kundalik hayotidagi kasb-koridan, mehnat jarayonlaridan kelib chiqadi. Masalan Farg'ona, Buxoro viloyatlari xalqi asosan paxtachilik, bog'dorchilik bilan shug'ullangani uchun raqs ijrolarida umumiy gavda va qo'l harakatlari asosiy o'rinni kasb etadi. Xorazmda esa oyoq harakatlari birinchi o'rinda turadi. Bu viloyatlarga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak, qoraqalpoq xalqi asosan baliqchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Qoraqalpoq raqslarida ana shunday mehnat zahmatkashlarining zafarli mehnat yo'li o'z aksini topgan. Bunday turli kasb egalarining hayotini aks ettiruvchi raqs yaratish va ijro etish juda qiyin ish. Sababi bu raqslarda ijrochining har bir xatti-harakati muhim ahamiyat kasb etadi. Tezkorlik, keskin burilishlar, ayni paytda nafislik bir-biriga uyg'unlashib ketmog'i lozim. Qo'l harakatlari esa jo'shqinlikni, tezlikni kerakli paytda esa

9. Л.Авдеева "Ўзбекистон маданияти" 1969 йил

rassom moy qalamidek ohistalikni talab qiladi. Qoraqalpoq an'anaviy raqslariga nazar tashlar ekanmiz, ana shu xususiyatlarning hammasini o'zida jamlaganini guvohi bo'lamiz. Bunga "Nozli", "Ayqulash", "Baliqchilar" raqslari misol bo'la oladi.

Ma'lumki raqsda o'ziga xoslik va badiiylik uning shakli va mazmunini uyg'unligida garmoniyasida aks etadi. Shu sababli raqsning obrazi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning musiqiy mazmun mohiyati zamonaviy va aktual bo'lishi lozim. Qoraqalpoq raqslarining ko'pchiligini mundariyasi bundan bir necha yillar oldingi voqealar mazmunidan iborat. An'anaviy mavzu deb yuritilib kelinayotgan "Pappay koylegim" degan lirik qo'shiq ham mavjud. Lekin bu raqslarning qayta sahnalashtirilishi va ijro etilish usuli zamonaviydir. Chunki raqs mavzusining tushunilishi va hal qilinishi aynan zamon bilan bevosita bog'liq. Shuning bilan birga raqs bilan faxrlanuvchilar bugungi kun egalaridir. Ularning kelajakdagi maqsadlari, orzu-umidlari aniq, mehnatsevar, irodali, o'z mehnatlari natijasiga kuyingan kelajagi buyuk xalq farzandlaridir. Bunday holat ko'pgina qoraqalpoq raqslarida o'z aksini topgan. Bu raqslarda xalq hayoti har tomonlama to'laligicha namoyon bo'lgan. "Malikajon" nomli she'riy raqs etyuti, "Sholi", "Oq oltin" kabi lirik valslarni misol keltirishimiz mumkin.

Qoraqalpog'istonda qoraqalpoq milliy ashula va raqs ansamblining tashkil topish qator umrboqiy jozibali, maftunkor raqslarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Buning natijasi o'laroq o'n yil mobaynida (1957- 1967) "To'y", "Sunday kuldim", "Amudarya", "Ilme Sultan", "Baliqshilar", "Shopanlar" singari o'ndan ortiq raqslar yaratildi va tomoshobinlar e'tiborida olqishlarga sazovar bo'ldi.

Qoraqalpoq raqslarining taraqqiy etishida kompozitorlar bilan bir qatorda shoirlarning ham urni behisob. Bu ijodkorlar xalq musiqasi va qo'shiqlarini tartibga solish jarayonida baletmeysterlar bilan birgalikda ularning ba'zi birlariga raqs qo'yishda mehnatlarini ayashmadi. Shunday kompozitorlarining biri Japaq Shamuratovdir. U milliy raqs san'atini rivojlanishida behisob hissa qo'shgan san'at fidosidir. Bundan tashqari qoraqalpoq raqsiga musiqa bastalashda o'zbek kompozitorlari M.Burxonov, M.Nasimov, I.Akbarov, M.Leviyev va boshqa

ko‘plab kompozitorlarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Qoraqalpoq raqs san’atiga ilk yo‘l ochgan baletmeyster A.A.Ibragimov sahnalashtirgan raqslarning mazmuni va xarakterida qoraqalpoq xalqining to‘g‘ri so‘zligi, mardligi shartli, ramziy ma’noda yaratilgan bo‘lsa, L.Petrosova xalqning psixologik jihatlari bilan urf-odatlarining go‘zal va nozik tomonlariga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Manbalarga asosan, Qoraqalpoq raqsining asosiy shakllari xalq ijodida ko‘zga tashlanadigan naqshlardan olingan. Masalan, “Salma” holati, “Aylanma” holati, “Quu moyin” holati, “Qoshqar muyiz” holati. L.Petrosovaning “Qoraqalpoq raqsi” kitobida: “men asosiy qoraqalpoq raqsidagi qo‘l harakatlarini naqshlardan olganman” – deb aytib o‘tgan. Lekin baletmeyster P.Madreymov bu kitobdagi qo‘l harakatlarini xalq naqshlaridan olingan degan fikrga unchalik qo‘shilmaydi, hatto, ba’zi bir harakatlarga nisbatan nisbiy fikr bildirib ularni qayta ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblaydi.¹⁰

“Qoraqalpoq raqsi” kitobida to‘jdaz raqs syujeti va raqs harakatlarining tasviriy ifodasi keltirilgan. Bu o‘yinlarni sahnada, xalq ichida qanday qo‘yish bo‘yicha Toppsent teatr va rassomchilik instituti sahna harakati kafedrasining katta o‘qituvchisi va respublika xoreografiya oliy maktabining pedagogi T.Litvinovanning metodik tushuntirishi ham qo‘shimcha qilingan. Kitobda har bir raqs batafsil bayon va tahdid etilgan. Ya’ni raqqosa qanday harakatlanishi, libosi, unga jo‘r bo‘luvchi musiqa notalarigacha kiritilgan. Bu manbadan har qanday qoraqalpoq raqs ishqibozi raqs o‘rganishda undagi raqs harakati tasvirlaridan foydalanish imkoniga ega. Bu jihatdan esa rassom A.Batikov tomonidan chizilgan raqs harakatining qalam tasvir nusxalari ilmiy ishning mohiyatini oshirgan. “Qoraqalpoq raqsi” kitobidan tashqari 1976 yildan beri san’atshunoslar tomonidan qoraqalpoq raqsi haqida hech qanday o‘quv qo‘llanma yoki darslik ishlab chiqilmagani sababli, o‘quv dargohida, oliy o‘quv yurtlarida, professional ansambllar solistlari uchun, havaskorlik ashula va raqs

jamoalari hamda xalq ijodini qadrllovchilari uchun qimmatli asosiy o'quv quroli bo'lib kelmoqda. Qoraqalpoq xalqida qadim-qadimdan keng tarqalgan bugungi kunga qadar ijro etilib kelinayotgan raqslardan biri "Shag'ala" (baliqchi qo'sh) raqsidir. Bu raqs ko'pincha to'y-marosimlarimizni o'ziga xos bezagi hisoblanadi. Raqs boshlanishidan oldin jarchi bor ovozi bilan yigitlarni mana shu o'yinga taklif etadi. O'yindan maqsad yigitlarning epchilligini, chaqqonligini, abjirligini bilish. Tomoshabinlar davrasining markaziga qalpoqni tashlashadi va o'zini sinamoqchi bo'lgan yigitlar (baliq o'rnidagi) qalpoq atrofini aylanib, qo'llarini qush qanotiga o'xshash orqaga qayirib panjalarini titratib, oyoqlar esa katta-katta qadam tashlab, "Shag'ala" qo'shig'ini aytishadi.

Qo'shiq tugagach yigitlar orasidan biri chiqib oyoqlarini keng (shpagat) ochib qo'llarini orqaga qayirib engashgan holatda qalpoqni og'zi bilan olmoqchi bo'ladi, lekin muvozanatni ushlab tura olmay yiqilib tushadi. Yiqilgan o'yinni tark etib, tomoshabinlar qatoriga qaytadi. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yinchilar orasidan eng abjirigina bu ishni bajarib, sovrinni qo'lga kiritadi. Bu raqs xorazmliklarda (shorloq) ham keng tarqalgan.

Ikkinchi bob. Xorazm va Qoraqalpoq raqsi namoyondalari

Qoraqalpoq san'atining etuk arboblari uzbek, turkman va boshqa qardosh xalq raqslaridan ijodiy ilhom olib milliy raqslar yaratishda o'z o'rinda Tamaraxonim, Ali Ardobus Ibragimov O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti L.Petrosovalarning o'rni katta.

2.1- Gavhar Raximova va “Lazgi”

Xalqning turmushida, hayot qatlamlarida tug'iladigan, y bilan birga yashaydigan va mukammallashib boradigan milliy raqs san'atini yana qanday qilib yaratish mumkin. Necha asrlardan beri yashab kelayotgan xalq og'zaki ijodiga: ertaklar, afsonalar, naqlar, qo'nshqlar, kuylar, noyob amaliy san'at asarlariga ega bo'lgan, o'zining xalqchil madaniyatini yaratgan, turli- tuman urf-odatlariga, marosimlarga ega bo'lgan qoraqalpoq xalqining birorta milliy raqsi bo'lmagan? Sababi qoraqalpoq xalqi o'tmishda deyarli ko'chmanchilik bilan umr kechirganlar, kichik-kichik istiqomat joylariga bo'linib ketganlar, ko'pchiligi chorvachilik bilan shug'ullangan bu xalqning vakillari tabiatning yovuz kuchlari, ofatchiliklariga qarshi.

2.2- Po'lat Madrayemov hamda “Oyquloch” raqs ansambli

Qoraqalpoq raqs sanati namoyondalari qardosh xalq raqslarini ijodiy o'rganish bilan birga, o'z navbatida, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Qoraqalpoq raqsining rivojlanish bosqichi Liza Petrosovadan so'ng Po'lat Madreymov ijodi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. XX asrning 70 yillari u o'z faoliyatini boshlagan va o'yin-umrining mazmuniga aylangan. O'yin so'zining ma'nosi nimani bildiradi? Bu qanday o'yin aslida? Xalqimizda bolalarni o'spirinlik paytlaridanoq qulog'iga eshitilib, qon-qoniga singib ketgan dastlabki bolalik o'yini bu **adaqarbaga** osilib endigina **tay-tay** qadamlar bosib kelayotgan paytidan

boshlanadi.

Shu bilan bar qatorda “Shag‘ala”, “Qir qalaq”, “Manglay shertpek”, “Bek tas” va boshqa o‘yinlari o‘zaro guruhlariga ajralib har bir ishtirokchi o‘z jamoasi yoki **qishloq, ko‘chasi** nomini himoya qilib kurashadi. Bularnig barchasini milliy xalq o‘yinlari qatoriga kiritsak, mutaxassislar tomonidan ixtisoslashtirilgan, maxsus xoreografiya maktabida tarbiyalanib o‘rganadigan o‘yinni qanday ataymiz(raqs qoraqalpoq tilida o‘yin)? Buning tarixi qayerdan boshlanadi? Uning insoniyat tarixida tutgan o‘rni qay darajada? Rivojlanish bosqichida u xalqning milliy professional o‘yini bo‘lib qoladimi?

Biz bu kabi savollarga javob qidirishimizdan oldin avvalambor “o‘yin” va “tansa” “tanets” atamalarining qanday va qay paytda ishlatilishini ko‘rib chiqamiz. Avval aytib o‘tganimizdek, Qoraqalpoq davlat **filarmoniyasi 1956** yili tashkil topgandan so‘ng qo‘shiq va **korkem** o‘yin-zavq dasturli ansambl tashkil topdi. Keyinchalik undan hozirgi “Ayqulash juldizlari”, “Xurliman” va boshqa ansambllar bo‘linib chiqa boshladi. O‘sha paytlari ular “qo‘shiq va oyoq o‘yin” ansambli deb atalar edi. 1980 yilga kelib mutaxassislar tomonidan gazetalarda “oyoq o‘yin”- deb ishlatilmaslik masalasi ko‘rib chiqildi. Sababi o‘yinni raqsni faqatgina oyoqlar emas, balki butun gavda ijro etadi. Hech qaysi bir xalqda “oyoq o‘yin” degan atama yo‘q. Ko‘pchilik tomonidan bu fikr maqullanib “o‘yin” – deb atay boshlashdi. Lekin tilimizga va quloqlarimizga singib ketganligi sababli haligacha ikki atama ba‘zan esa “oyoq o‘yin” ba‘zida “o‘yin” deb ishlatiladi.

Qoraqalpoq raqsining 70-yillardan beri rivojlanishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan qoraqalpoq raqs fidoiysi Po‘lat Madrayemov o‘z ishini bir qancha milliy raqslar yaratish bilan bir qatorda qanchalik qiyin bo‘lishiga qaramay qoraqalpoq raqs liboslarini sahnaga moslashtirib bir muncha o‘zgartirishlar kiritib, qoraqalpoq madaniyati va san‘atini dunyoga tanitishdan boshladi.

Liboslardagi o‘zgarishlarni aytib o‘tadigan bo‘lsak, raqqos boshidagi **degeley**ni enliroq, chiroyli etib tiktirib, bir tomonga qiyshaytibroq kiyish,(kezi kelganda bu bosh kiyimni raqqosalar ham kiyishadi) raqqosalar burniga taqadigan siqib turuvchi **arebek** zirak yasatish, Arebek Indiyada burunning chap tomoniga,

Nogʻay xalqida oʻng tomoniga taqiladi. Qoraqalpoq xalqida ham arebek burunning oʻng tomoniga taqilishini sababi qizlar toʻy-marosimlarida arebekni yechmasdan ovqatni oʻng qoʻlida yeydilar. Dasturxon atrofida qizlar oʻziga xos ibo-hayoni saqlash maqsadida ovqatni oz- ozdan chiroyli yeyish kerak, agar esidan koʻtarilsa qoʻli arebekka tegib buni eslatib turgan. Quloqlariga halqali ziraklar taqib, qizlar quloqlari oldidan **tulmshaq** soch oʻrib, uning uchlariga munchoqlar taqib tushirib qoʻyishadi, qoʻllariga qizil, yashil qoshli bilakuzuk taqish, raqsga tushgan paytda qizlar boʻynidagi oʻziga xos jaranglovchi xaykele va unrmunchoqlarni zanjirini choʻzib, zanjir uchidagi xon tangalarni yana ham jiringlovchi etib ipshov berishadi, qizlar boshiga kiyaadigan **taqiyani** popugini chap tomonga gul shakliga keltirib teparoq joylashtirish (oldin bosh kiyimni pastki qismida quloqqa yaqin turgan), liboslardagi naqshlarni koʻrinishini nozikroq kichikroq etib ishlashgan (oldin katta koʻrinishda toʻqilgan), ayollar kiyadigan bosh kiyim sahna ortida kiyib-yechishga qulay etib bir tomoni teparoq koʻtarilib, ikkinchi tomoni pastroq tushib turadigan qilib I.Adilbekov bilan maslahatlashib ishlab chiqilgan. Haqiqatdan ham P.Madreymov sahnalashtirgan haqiqiy qoraqalpoq milliy raqslari “Qiyiz baso”, “Jigitler”, “Aydar toy”, “Amanbaydin ala ati”, “Ellarim bar” va boshqa raqslari haqida qancha gapirsak, shuncha kam. 2003-yili Nukus shahrining 70-yilligiga bagʻishlangan konsert dasturini I.A.Karimov koʻrganidan keyin bu konsert dasturidan taʼsirlanib, “Ayqulash julduzlari” ansamblining yurtga tanilgan iqtidorli professional jamoa ekanligini, ularni har bir chiqishlari xalqimizga rohat bagʻishlashini aytib, “agar tanlov oʻtkaziladigan boʻlsa “Ayqulash julduzlari” yigitlariga birinchilikni berar edim”, deb yuqori baho bergan edi.